

O‘ZBEK VA FORS TILLARIDA KO‘PLIK KATEGORIYASINING MORFOLOGIK VA SEMANTIK QIYOSIY TAHLILI

Mohizarbegim ERGASHEVA

TDSHU, arab filologiyasi yo‘nalishi

2-bosqich (kunduzgi) arab guruhi talabasi

Ilmiy rahbar: D.S. Saidoripova

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek va fors tillaridagi ko‘plik kategoriyasining morfologik va semantik jihatlarini qiyosiy tahlil qiladi. O‘zbek va fors tillaridagi ko‘plik shakllari, ularning grammatik xususiyatlari va semantik funksiyalari solishtiriladi. Taqqoslash orqali ikkala til o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: ko‘plik, -lar, آن، ها، morfologiya, semantika, o‘zbek tili, fors tili, qiyosiy tahlil, grammatik qo‘shimchalar.

Abstract: This article provides a comparative analysis of the morphological and semantic aspects of the plural category in uzbek and persian languages. The plural forms, their grammatical features and semantic functions in Uzbek and Persian are compared. The comparison identifies similarities and differences between the two languages.

Keywords: plural, -lar (form of plural in uzbek language), آن، ها (plural forms in persian language, morphology, semantics, uzbek language, persian language, comparative analysis, grammatical adverbs.

O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga, fors tili esa eroniy tillar guruhiga mansub. Bu ikki tilning ildizi, grammatik tuzilishi va so‘z yasalishi bir-biridan farqlanadi. O‘zbek tilida agglutinatsiya — ya’ni qo‘shimchalar orqali ma’no va grammatik vazifani ifodalash keng tarqalgan bo‘lsa, fors tilida esa flektiv (so‘z ichidagi o‘zgarishlar) uslub hukmron.

Fors va o‘zbek tillarida ko‘plik kategoriyasini tahlil qilish nafaqat bu tillarning o‘ziga xos xususiyatlarini, balki ularning o‘xshashlik va farqlarini ham ochib beradi. Ko‘plik shakli tilning asosiy morfologik tuzilmalardan biri bo‘lib, har bir tilda o‘ziga xos qonuniyatlarga ega.

Xususan, o‘zbek tilida 2 xil son shakli mavjud: birlik va ko‘plik shakli. Birlik shakli shunchaki shu so‘zni qo‘llash orqali ifodalansa, ko‘plikni ifodalash uchun -lar qo‘shimchasidan foydalaniladi. Masalan:

Gul (1 dona) – gullar (birdan ortiq)

Kitob (1 ta) – kitoblar (birdan ortiq)

Bir qarashda o‘zbek tilida har qanday so‘zning oxiriga -lar qo‘shimchasini qo‘shib, ko‘plik hosil qilinaveradigandek tuyuladi, ammo uning uchun ham ma’lum bir shartlar mavjud. Avvalo, bu affiks ot turkumidagi so‘zlar yoki otlashgan so‘zlarga

qo‘shiladi. Sifat, ravish kabi so‘z turkumlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri bu qo‘shimchani ishlatib bo‘lmaydi. Qolaversa, ot turkumidagi so‘z sanaladigan ot bo‘lishi kerak. Aks holda unga qo‘shilgan -lar o‘zining ko‘plik ma’nosini yo‘qotib, tur, xil, nav ma’nosini ifodalaydi. Masalan:

Olma – olmalar (Olma so‘zi sanaladigan ot va bu yerda -lar qo‘shimchasi olmaning birdan ortiq ekanligini bildiriyapti.)

Un – unlar; suv – suvlar;

Do‘konga unlar va suvlar keldi. (Gapdagi un va suv so‘zlari sanalmaydigan ot hisoblanadi va ularga qo‘shilgan -lar affiksi bir nechta tur, navini ifodalaydi.)

Bundan tashqari, o‘zbek tilida narsa-buyumning birdan ortiqlikini ifodalash uchun *bir nechta*, *bir qancha*, *ko‘p* kabi birliklar ham ishlatiladi, lekin bu birliklar aniq miqdorni ko‘rsatmaydi. Narsa-buyumning aniq miqdorini bilish uchun sonlardan foydalaniladi. *Beshta qalam*, *sakkizta xonadon* kabi... Umuman olganda, O‘zbek tilida otlarning ko‘plik shakli bitta qo‘shimcha, ya’ni -lar qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi. Bu qo‘shimcha jonli, jonsiz predmet nomlariga ham qo‘shilaveradi: kitoblar, odamlar va h.k.¹

Fors tilida esa bu biroz farqlidir. Ya’ni qo‘shimchalar va ularning qo‘llanilishi uchun asosli qoidalar mavjud. Lekin har ikkala tilda ham otlar ikki xil son shaklga ega: birlik shakli va ko‘plik shakli.

Otlarning ko‘plik formasini yasash uchun ikki xil qo‘shimchadan foydalaniladi. Ulardan biri -hā qo‘shimchasi, ikkinchisi esa -ān qo‘shimchasidir. Bu ikkala qo‘shimcha -ān va -hā o‘zbek tilidagi -lar qo‘shimchasiga teng keladi, lekin ularning ishlatilishi biroz farq qiladi.

نکته: معروفترین علامت جمع در زبان فارسی، علامت جمع «ها» است. گاهی از «آن» هم استفاده می شود.

(Tarjimasi: Fors tilidagi eng mashhur ko‘plik belgisi -hā ko‘plik belgisidir, ba’zida -ān ham ishlatiladi.)²

1. ān – ان. Bu qo‘shimcha jonli predmet nomlariga qo‘shiladi. Masalan:

Erkaklar – mardān مردان = مرد + ان

Ayollar – zanān زنان = زن + ان

2. hā – ها. Bu qo‘shimcha universal hisoblanib, asosan, jonsiz predmet nomlariga qo‘shiladi. Masalan:

Daftarlar - daftarhā دفترها = دفتر + ها

Ba’zi hollarda -ān ko‘plik qo‘shimchasi o‘rniga ko‘proq -hā qo‘shimchasi ishlatilishi mumkin, ya’ni -hā jonli predmet nomlariga ham qo‘shilaveradi.

Bu hodisa hozirgi paytda -ān qo‘shimchasi o‘rnida ko‘proq -hā qo‘shimchasining ishlatilishi bilan izohlanadi. Lekin ba’zan ularni bir-biri bilan almashtirish mumkin

¹ A.Quronbekov. Fors tili. Darslik. T., 2006.

² D.Saidoripova. Fors tilidan grammatik mashqlar to‘plami. O‘quv qo‘llanma. T., 2025.

emas, aks holda ma'no o'zgarib ketadi. Masalan:

[sar]-bosh

[sarān]-boshliqlar

[sarhā]-boshlar³

Bundan tashqari, -ān ko'plik qo'shimchasi ayrim juft tana a'zolari nomlariga ham qo'shilishi mumkin. Masalan:

Lablar – [labān] – لب – لبان

Ko'zlar – [češmān] – چشم – چشمان

Ammo oyoq, qo'l kabi so'zlarga -ān emas, balki -hā qo'shimchasi qo'shiladi:

Qo'llar – [dasthā] – دست – دستها

Oyoqlar – [pāhā] – پاها – پا

Agar o'zbek tilida tana a'zolariga -lar qo'shimchasi qo'shilsa, ma'noni yanada kuchaytirib, bo'rttirish ma'nosi ifodalanadi:

Boshim og'rib ketdi.

Boshlarim og'rib ketdi. (Ma'no kuchaygan)

Sen kelguncha ko'zimdan yosh oqdi.

Sen kelguncha ko'zlarimdan yoshlar oqdi.

Ko'pincha, bu shakldan badiiy usulda, his-tuyg'ularni kuchaytirib ko'rsatish uchun foydalaniladi.

Fors tilida otlardan ko'plik yasash uchun -ān va -hā affikslaridan tashqari, arab tilidan kirib kelgan ko'plik affikslari va „siniq ko'plik“ deb ataluvchi maxsus ko'plik shakllari ham mavjud. Bu shakllar aynan arab tilidan o'zlashgan so'zlarning ko'plik shaklidan kelib chiqqan. Ya'ni biron bir arabcha so'z o'zining ko'plik formasi bilan fors tiliga kirib kelgan. Ular quyidagilardir:

1) -in qo'shimchasi - bu qo'shimcha arab tilidagi shaxs nomlarini bildiruvchi so'zlarga qo'shib, ularning ko'plik shaklini hosil qiladi. Masalan:

Mulkdor [mālek] – mulkdorlar [mālekin] – مالک – مالکین

2) -un qo'shimchasi - bu qo'shimcha -i bilan tugaydigan ayrim arabcha shaxs nomlariga qo'shib, ko'plik shaklini hosil qiladi. Bu shakl fors tilida kam ishlatiladi. Masalan:

Ruhoniy [ruhāni] – ruhoniylar [ruhāniyun] – روحانیون – روحانی

3) -āt qo'shimchasi - bu eng ko'p ishlatiladigan arabcha ko'plik qo'shimchalaridan biri bo'lib, odatda, jonsiz narsalarni bildiruvchi so'zlarga qo'shiladi. Masalan:

Hayvon [heyvān] – hayvonlar [heyvānāt] – حیوان – حیوانات

Eslatma: Agar so'z oxiri -e yoki -at bilan tugasa, bu qo'shimcha bevosita so'zning negiziga ulanadi va oxirgi -e yoki -at tushib qoladi. Masalan:

Maqola [maqāle] – maqolalar [maqālāt] – مقالة – مقالات

³ A.Quronbekov. Fors tili. Darslik. T., 2006.

Shuningdek, ushbu qo‘shimcha ba‘zi forscha so‘zlar bilan ham qo‘llanadi:

Qishloq [deh] – qishloqlar [dehāt] – دهات – ده

Bog‘ [bāy] – bog‘lar [bāyāt] – باغات – باغ

Eslatma! Agar ba‘zi forscha so‘zlar -e yoki -i unlisi bilan tugasa, ularga -āt ko‘plik qo‘shimchasi emas, balki fonetik variant bo‘lgan -jāt qo‘shimchasi qo‘shiladi. Bunda so‘z oxiridagi e tushib qoladi:

Mive → mivejāt (mevalar) – میوه – میوجات

Ruznāme → ruznāmejāt (gazetalar) – روزنامه – روزنامجات

Sabzi → sabzijāt (ko‘katlar) – سبزی – سبزیجات

Shu o‘rinda aytish kerakki, yuqoridagi ko‘plik qo‘shimchalari o‘zbek tilidagi so‘zlarda ham uchraydi. Bu ham, albatta, o‘zlashma so‘zlar bilan bog‘liq. Masalan, hayvonot, sabzavot, nabotot kabi. Bunday so‘zlar, ko‘pincha, *yig‘indi*, *to‘plam*, *soha* yoki *umumiy tushuncha* ma’nosini bildiradi.

Fors tilida, shuningdek, arabcha “siniq ko‘plik” shakli ham mavjud. Bu ko‘plikda so‘zning ichki tovush tarkibi (unli va undoshlar) o‘zgaradi. Bu shakllar arab tilidan tayyor holda, ko‘plikda kirib kelgan va murakkab yasalishi tufayli lug‘atlarda birlik va ko‘plik shakllari birgalikda keltiriladi. Shu sababli har bir arabcha so‘z ko‘plik shakli bilan birga yodlanishi maqsadga muvofiqdir. Masalan:

Tarjimasi	جمع		مفرد	
o‘rtoqlar	rofaqā	رفقا	rafiq	رفیق
vazirlar	vozarā	وزرا	vazir	وزیر
shoirilar	šo‘arā	شعرا	šā‘er	شاعر
adabiyotchilar	odabā	ادبا	adib	ادیب
shaxslar	ašxās	اشخاص	šaxs	شخص

4

Qolaversa, o‘zbek tilidagi *bir nechta*, *bir qancha*, *ko‘p* kabi til birliklari fors tilida ham uchraydi. Ular quyidagi jadvalda keltirilgan:

So‘z	Transkripsiya	Ma’nosi
بسیار	besyār	Juda ko‘p, ko‘p
زیاد	ziyād	Ko‘p
چند	čand	Bir nechta
بسیاری از	besyāri az	Ko‘pchilik (odamlar)
عده ای	edde-i	Bir guruh, biroz odam

⁴ X.Maxamadaliyev, X.Alimova, G.Agzamova. Fors tili. Darslik. T., 2018.

Jadvaldagi birliklar va raqamlar orqali ham narsa-buyumning birdan ortiq ekanligini ifodalash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va fors tillarida ko'plik kategoriyasi morfologik va semantik jihatdan o'ziga xosliklarga ega bo'lsa-da, ular orasida muayyan umumiyliklar ham mavjud. O'zbek tilida otlarning ko'plik shakli asosan «-lar» qo'shimchasi orqali ifodalansa, fors tilida bu vazifani «-hā» qo'shimchasi bajaradi. Har ikki tilda ham ko'plik grammatik vositalar bilan bir qatorda semantik birliklar orqali ham ifodalanishi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Quronbekov. Fors tili. Darslik. T., 2006.
2. D.Saidoripova. Fors tilidan grammatik mashqlar to'plami. O'quv qo'llanma. T., 2025.
3. M.Abdusamatov. Fors tili. Darslik. T., 2007.
4. X.Maxamadaliyev, X.Alimova, G.Agzamova. Fors tili. Darslik. T., 2018.